

SAID AHMAD HIKOYALARIDA SHAXS RUHIYATI, ICHKI ZIDDIYAT VA DAVR BILAN KONFLIKTNING BADIY-PSIXOLOGIK HAMDA POETIK IFODASI

Alisher navoiy nomidagi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

O'zbek tili va adabiyoti magistri

Ne'matov Elzod Farhod o'g'li

Annotatsiya. Ushbu maqolada taniqli o'zbek adibi Said Ahmad hikoyanavislik mahorati, xususan, asarlarida shaxs ruhiyati, ichki ziddiyatlar hamda qahramon va davr o'rtasidagi konfliktning badiiy-psixologik va poetik talqini tadqiq etilgan. Yozuvchi hikoyalaridagi inson fitrati, personajlarning ma'naviy-ruhiy evrilishlari hamda ijtimoiy muhit bilan to'qnashuvlari konkret badiiy matnlar tahlili orqali ochib berilgan. Tadqiqot davomida Said Ahmad ijodiga xos bo'lgan psixologizm, individual nutq xususiyatlari, lirik va hajviy unsurlar sintezi hamda davr ziddiyatlarining poetik ifodalanish qonuniyatlari ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Said Ahmad, hikoya, shaxs ruhiyati, ichki ziddiyat, davr konflikti, badiiy psixologizm, poetika, xarakter yaratish, lirik-hajviy uslub.

O'zbek hikoyachiligining XX asr oxiri va mustaqillik davridagi taraqqiyotida S.Ahmad ijodi alohida o'rin tutadi. Adibning dastlabki ijodiy qiyofasi ko'proq yumor, hajv, xalqona kulgi va hayotiy detallar bilan bog'liq holda talqin etilgan bo'lsa, keyingi hikoyalarida shaxs ruhiyati, tarixiy xotira, davr zo'ravonligi va ichki ziddiyat masalalari tobora teranlashadi. Bu hol, avvalo, yozuvchining o'z boshidan kechirgan lager tajribasi, totalitar mafkura bilan yuzma-yuz kelgan avlodning alamli xotirasi hamda mustaqillik sharoitida tarixiy haqiqatni ochiq aytish imkoniyati bilan izohlanadi. Shuning uchun S.Ahmad hikoyalaridagi konflikt faqat voqeaviy to'qnashuv emas, balki davr, e'tiqod va insoniy burch o'rtasida ezilgan qalbning dramatik holatidir.

“Sarob” hikoyasi S.Ahmad nasrida totalitar tuzumning shaxs ruhiyatini qanday yemirishi va oilaviy munosabatlarni qanday fojeaga aylantirishini ko‘rsatadigan yetuk namunadir. Hikoya boshidagi epigraf: “Ota qarg‘ishi misoli o‘q – u oxiratda emas, shu dunyoning o‘zida nishonga tegadi”, degan hukmni ilgari suradi. Epigraf voqeani oldindan axloqiy-falsafiy maydonga olib chiqadi: o‘quvchi bu hikoyani oddiy lager lavhasi sifatida emas, ota qarg‘ishi, farzand xiyonati va davr adolatsizligi haqidagi fojea sifatida qabul qiladi.

Hikoyaning markazida Olimjon domla va Kimsanboy munosabati turadi. Kimsanboy bolaligida siyosiy targ‘ibotning quroliga aylantiriladi. GPU xodimi unga otasining harakatlarini kuzatish, uyga kelgan mehmonlar gapini yozib borish haqida tilxat oldiradi. Bu lavha shaxs ruhiyatining tashqi bosim ostida buzilish jarayonini ko‘rsatadi. Kimsanboyning ichki ziddiyati hali yetuk axloqiy ong darajasida shakllanmagan; u mukofot, shon-shuhrat va “qahramonlik” vasvasasi bilan otalik burchi, farzandlik vijdoni o‘rtasida qoladi. Ammo davr mafkurasi uning bolalik ongini egallab, konfliktni axloqiy tanlovdan siyosiy buyruqqa aylantiradi.

Mansurovning “Faktlarga siyosiy tus berishni o‘rgan!” degan gapi hikoyadagi davr konfliktining kalitidir. Bu gap badiiy jihatdan juda muhim: unda haqiqatni buzish mexanizmi ochiladi. Endi fakt hayotiy dalil emas, mafkuraviy qurolga aylanadi. S.Ahmad shu birgina dialog orqali totalitar siyosatning inson ruhiyatiga qanday singishini ko‘rsatadi. Kimsanboyning ruhiy tanazzuli shundan boshlanadi: u avval yolg‘ondan cho‘chiydi, keyin esa o‘sha yolg‘onning ijrochisiga aylanadi.

Hikoyaning eng fojiali nuqtalaridan biri ota bilan o‘g‘il yuzlashtirilgan sahnadir. Olimjon domla o‘g‘lining aytganlarini eshitib, “Iloyo juvonmarg bo‘l! Umring xor-zorlikda o‘tsin”, deya uni qarg‘aydi. Bu qarg‘ish oddiy g‘azab ifodasi emas; u otalik muhabbatining sinishi, tarixiy adolatsizlik oldidagi ojizlik va axloqiy hukmning birlashgan ko‘rinishidir. S.Ahmad bu sahnani melodramatik ohangda emas, qisqa, keskin va ruhiy portlash shaklida beradi. Shu sabab qarg‘ish keyingi voqealar uchun poetik-kompozitsion bog‘lovchiga aylanadi.

Kimsanboyning keyingi taqdiri ichki konfliktning tashqi qiyofaga ko‘chishini ko‘rsatadi. U frontga ketayotganda “xalq dushmanining o‘g‘li” emas, “Stalin farzandi” bo‘lib urushga kirishini aytadi va familiyasini Olimjonovdan Yolqinovga almashtiradi. Familiyadan voz kechish bu yerda shaxsiy genealogiyadan, otalik ildizidan va milliy-axloqiy xotiradan voz kechish belgisi bo‘lib xizmat qiladi. Adib bitta nom o‘zgarishi orqali qahramonning ruhiy uzilish darajasini ochadi.

Lagerda ota bilan o‘g‘ilning qayta uchrashuvi hikoyaning psixologik cho‘qqisidir. “Olimjon domla o‘g‘lini tanidi. Ammo Kimsanboy otasini tanimadi”, degan jumla qisqa bo‘lsa-da, butun asar fojeasini jamlaydi. Bu yerda tanish va tanimaslik tashqi xotira bilan bog‘liq emas; gap axloqiy xotiraning yo‘qolishi haqida bormoqda. Ota o‘g‘ilda o‘z farzandini emas, davr yasagan ayanchli mahluqni ko‘radi. Kimsanboy esa otasini tanimasligi bilan insoniy ildizidan uzilganini bildiradi.

A.Allashev “Sarob”dagi ota-o‘g‘il munosabatini totalitar siyosat, mafkura va qadriyatlar inqirozi bilan bog‘lab tahlil qiladi. Bu fikr hikoyadagi konfliktni faqat oilaviy mojaro doirasida emas, tarixiy-mafkuraviy jarayon sifatida talqin qilishga imkon beradi. Shunday ekan, “Sarob”da shaxs ruhiyati davrning bevosita bosimi ostida ochiladi; ichki konflikt esa tarixiy fojeaning inson qalbidagi aks-sadosiga aylanadi.

“Qorako‘z majnun” hikoyasi ona qalbi, farzand dog‘i, e‘tiqod va milliy o‘zlik masalalarini badiiy-psixologik asosda talqin etadi. Asar markazida Saodat aya obrazi turadi. U o‘g‘li Bo‘rixonni tirik bo‘lsa-da, ma‘nan yo‘qotgan ona sifatida tasvirlanadi. Qorako‘z esa oddiy it emas, ona qalbining yolg‘izligiga sherik, vafoning badiiy timsoli va insoniylik mezonini ochuvchi ramziy obrazdir.

Saodat aya Qorako‘zni himoya qilar ekan, “Kasalxonada yotganimda shu itgina ko‘kragini qorga berib, hovlida bir oy deraza tagida yotgan. Senlar... bir-ikki xabar oldilaring, xolos”, deydi Ushbu parcha hikoyaning axloqiy markazini belgilaydi. Ona uchun vafoning mezonini insoniy nomda emas, ruhiy yaqinlikda namoyon bo‘ladi. Qorako‘zning sadoqati farzandlarning beparvoligiga qarshi qo‘yiladi va shu kontrast orqali shaxs ruhiyatidagi og‘riq badiiy kuch kasb etadi.

Bo‘rixonning qaytishi dastlab Saodat aya qalbida quvonch uyg‘otadi. Biroq yozuvchi bu quvonchni darhol ichki ziddiyat bilan murakkablashtiradi: onasi o‘g‘lini bag‘riga bosganda undan aroq va begona e‘tiqod muhitining hidi keladi, kampir esa baxtiyorligi sabab buni sezmayd. Bu sahnada hissiy ko‘rlik va ruhiy ehtiyoj birlashadi. Ona o‘g‘ilni qanday bo‘lsa, shunday qabul qilmoqchi; ammo matnning o‘zi o‘quvchiga Bo‘rixonning begonalashganini sezdiradi.

Bo‘rixonning ukalari bilan uchrashuvida “Salyam!” deb ruscha salomlashishi, qarindoshlari bilan til va ruhiy masofa hosil qilishi milliy o‘zlikdan uzoqlashuv belgisidir. Til bu yerda oddiy kommunikatsiya vositasi emas, ruhiy mansublik belgisi sifatida ishlaydi. Qahramon ona tilidan uzoqlashgani sari ona mehridan ham, oilaviy xotiradan ham yiroqlashadi. Shu ma’noda hikoyadagi konflikt til, din, vatan va oila tushunchalarining bir nuqtada kesishishidan hosil bo‘ladi.

Bo‘rixon bo‘ynidagi zanjir uchida “but” yaltirashi tasviri hikoyaning eng kuchli ramziy detallaridan biridir. Detal so‘z bilan izohlab berilmaydi, lekin uning semantik yuklamasi juda katta: u Saodat aya orzu qilgan farzand bilan real Bo‘rixon orasidagi uzilishni ko‘rsatadi. S.Ahmad bu yerda to‘g‘ridan-to‘g‘ri didaktik hukm bermaydi; ramziy detal qahramonning ruhiy va e‘tiqodiy qiyofasini o‘zi ochadi.

Adib Bo‘rixonning O‘zbekiston mustaqilligiga befarqligini ko‘rsatib, u “o‘zga yurtning fuqarosi, o‘zga e‘tiqodning sig‘indisi”ga aylanganini bildiradi. Bu fikr hikoyadagi davr bilan konfliktni mustaqillik qadriyati orqali chuqurlashtiradi. Ona uchun Vatan, e‘tiqod va farzand ajralmas birlikdir; Bo‘rixon uchun esa bu birlik yemirilgan. Shuning uchun Saodat ayaning ichki ziddiyati faqat farzand sog‘inchi emas, milliy-ma’naviy yo‘qotish dardidir.

Saodat ayaning “Bu bolani men emas, bo‘ri tuqqan”, degan iztirobli hukmi ona obrazining ruhiy portlashini ifodalaydi. Bu gapda onalik muhabbati va axloqiy nafrat o‘rtasidagi keskin ziddiyat jamlangan. U o‘g‘lidan voz kechmoqchi emas, ammo o‘z qadriyatlariga xiyonat qilgan farzandni tan olishga ham qodir emas. Ana shu ikki holat oralig‘i hikoyaning eng og‘ir psixologik maydonini tashkil etadi.

Bo‘rixonning bolalik kiyimlari yoqilgan sahnada “Gulxanda Bo‘rixonning bolaligi yonardi”, degan badiiy jumla qo‘llanadi. Bu ramz hikoyadagi konfliktni predmetli detalga ko‘chiradi. Yonayotgan kiyimlar jismoniy narsa bo‘lsa-da, matnda bolalik, xotira, ona orzusi va yo‘qotilgan ma‘naviy ildiz timsoliga aylanadi. Shuning uchun ushbu sahna poetik jihatdan marosimiy xarakterga ega: Saodat aya tirik o‘g‘lining ma‘naviy o‘limini tan oladi.

V.Xalizev badiiy psixologizm hatto hayvon obrazlari orqali ham namoyon bo‘lishi mumkinligini qayd etadi. Bu nazariy fikr “Qorako‘z majnun”dagi it obrazini tushunishda muhimdir. Qorako‘zning ayaga sadoqati, magnitofondan kelayotgan ovozga intilishi va oxirida jonsiz yotishi insoniylikni hayvondagi vafodorlik orqali ko‘rsatadi. Shu tariqa adib paradoksal poetik usuldan foydalanadi: insoniy qiyofasini yo‘qotgan farzandga qarshi hayvonning “insoniy” vafosi qo‘yiladi.

XULOSA.Said Ahmad hikoyalarida shaxs ruhiyati, ichki ziddiyatlar va davr konflikti masalalarini badiiy-psixologik hamda poetik jihatdan tadqiq etish natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. **Badiiy psixologizm mahorati:** Said Ahmad qahramonlar ichki dunyosini shunchaki tasvirlamaydi, balki ularning ruhiy evrilishlari, pushaymonliklari va iztiroblarini monolog hamda dialoqlar orqali detalizatsiya qiladi. Adib inson tabiati va fitratining murakkab qirralarini ochishda badiiy psixologizmning o‘ziga xos maktabini yaratgan.

2. **Davr va shaxs to‘qnashuvi:** Hikoyalarda davrning g‘ayriinsoniy qonuniyatlari, ijtimoiy adolatsizliklar va turg‘unlik illatlari individual shaxslar fojiasi orqali ko‘rsatilgan. Qahramonlarning ijtimoiy muhit va mavjud tuzum bilan konflikti ularning ma‘naviy-axloqiy tanlovlarida aks etadi.

3. **Ichki ziddiyatlar dialektikasi:** Yozuvchi personajlari ko‘pincha o‘z-o‘zi bilan kurashadigan, vijdon va burch, his-tuyg‘u va ijtimoiy majburiyatlar arosatida qolgan murakkab xarakterlardir. Bu holat asarlarning dramatik keskinligini va hayotiyiligini ta‘minlagan.

4. **Poetik o‘ziga xoslik va uslub:** Said Ahmad hikoyanavisligida lirik pafos va achchiq hajviy (satirik) piching judayam usta uyg‘unlashtirilgan. Ramziy

obrazlar, tabiat manzaralari (peyzaj) hamda personajlarning individual nutqi qahramonlar ruhiy holatining poetik ekvivalenti bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar.

1. Said Ahmad. Qorako‘z majnun: hikoyalar / so‘zboshi muallifi U.Normatov. Toshkent: O‘zbekiston, 2013. – B.100
2. Хализев В.Е. Теория литературы. Москва: Высшая школа, 1999. – С.131.
3. Said Ahmad. Qorako‘z majnun: hikoyalar / so‘zboshi muallifi U.Normatov. Toshkent: O‘zbekiston, 2013. – B.10.
4. **Karimov N.** Said Ahmad: Hayoti va ijodiy faoliyati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010. – 160 b.
5. Boltayeva M. O‘zbek hikoyachiligida psixologizm muammosi (Said Ahmad ijodi misolida): Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2011. – 132 b.